NAVOSIZGA NAVO BO‘L

Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Xamidova Nodira
Termiz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti.
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabalari
Eshboyeva Gulshan Xayrulla qizi
Yusupova Sevara Nurmamatovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin yulduzi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy merosi badiiy tilda falsafiy mushohada etiladi. Shoirning dunyoga kelishi millat va ma'rifat ahlining qalbiga ingan nur sifatida tasvirlanib, uning yoshlik yillaridayoq ustozi Lutfiy tahsiniga sazovor bo‘lgani yorqin misollar bilan ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada Navoiyning daho ijodkor sifatidagi qudrati, jahon adabiyoti xazinasidan munosib o‘rin olgan o‘lmas asari «Xamsa» va turkiy tilning mavqeyini yuksaltirishga xizmat qilgan «Muhokamatul lug‘atayn» asarining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, G‘iyosiddin, Lutfiy, o‘zbek mumtoz adabiyoti, g‘azal, «Xamsa», «Muhokamatul lug‘atayn», zullisonayn, turkiy til, forsiy til, ma'naviy yetuklik, ilohiy ishq, komil inson, ma'rifat nuri.

Аннотация: В данной статье в художественно-философском стиле рассматриваются жизнь и творческое наследие яркой звезды узбекской классической литературы, великого мыслителя Алишера Навои. Рождение поэта описывается как свет, проникший в сердца нации и просветителей, а также на ярких примерах демонстрируется то, как еще в юные годы он

заслужил восхищение своего наставника Лутфи. Кроме того, в статье раскрывается мощь Навои как гениального творца, значение его бессмертного произведения «Хамса», занявшего достойное место в сокровищнице мировой литературы, и роль труда «Мухокаматул лугатайн» в повышении статуса тюркского языка.

Ключевые слова: Алишер Навои, Гиясиддин, Лутфи, узбекская классическая литература, газель, «Хамса», «Мухокаматул лугатайн», зуллисонайн (двуязычный), тюркский язык, персидский язык, духовная зрелость, божественная любовь, совершенный человек, свет просвещения.

Abstract: This article provides a philosophical and artistic reflection on the life and creative heritage of Alisher Navoi, the brilliant star of Uzbek classical literature and a great thinker. The poet's birth is portrayed as a light descending into the hearts of the nation and people of enlightenment, highlighting how he earned the praise of his master, Lutfiy, even in his youth. Furthermore, the article explores Navoi's power as a genius creator, the significance of his immortal masterpiece "Khamsa," which holds a prestigious place in the treasury of world literature, and the role of "Muhokamatul Lug'atayn" in elevating the status of the Turkic language.

Keywords: Alisher Navoi, Ghiyosiddin, Lutfiy, Uzbek classical literature, ghazal, "Khamsa", "Muhokamatul Lug'atayn", zullisonayn (master of two languages), Turkic language, Persian language, spiritual maturity, divine love, the perfect man (komil inson), the light of enlightenment.

Moziydan taralgan sado ko'ngilga diltorar navolarni taqdim etadi. Nainki taqdim etadi, balki bizni uning chamanlari sari yo'lga chorlaydi. U chamanzor aro

ohistagina odimlar ekansiz, undagi gullarning xushbo'yi dimog'ingizda ajib iz qoldiradi. Uning qaddi niholiga tasannolar aytasiz, buyuklik dahosi qarshisida bosh egasiz. Bu chamanning gullari tarovati, ifori bir-birini takror etmaydi, ular betakror.

Olam g'uborlardan xalos bo'lib zaminning pokiza ostonasiga bosh qo'yib, butun borliqni tongning beg'ubor nafasi qoplab, dil shodliklar ila sarmast bo'lganda, navosiz ko'ngillarga navo ulashmoq ilinjida bir go'dak tug'ildi. Bahorning nasim-yellarini sog'ingan tabiat o'z chehrasini oftobning iliq nurlari sari burdi.

Chaqaloqning «inga»si tutgan G'iyosiddin kichkina xonadoniga quvonch indi, nur indi. Bu nur nainki bir xonadon, balki butun bir millat, butun bir ma'ni ahli qalbiga ingan nur bo'ldi. Ota ortida chirog'in yoquvchi suyanchig'idan, ona esa mehr rishtasining payvandi tug'ilganidan shod. Go'dak ulg'ayib, nainki ota-ona chirog'ini yoqdi, balki ilm ahlining ma'rifiy hayot chirog'ini yoqdi.

Jajji Alisher hayotining ilk kunlaridan boshlab, ko'ngil gavhariga nur inib, bashariyatga ezgulik, yaxshilik ilinmoq ilinjida umr ko'rdi. Bolakay nazm deya atalmish olamning ostonasiga ilk qadamni qo'ydi, ustozi Lutfiyning muborak nazarlariga tushganida bor yo'g'i 12 yoshda edi. U zot esa Alisherning

Orazin yopg'ich ko'zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim, bo'lur yulduz, nihon bo'lg'uch quyosh,

ma'tlali g'azalga ishora etib, «agar mumkin bo'lganda erdi, g'azallarim shodasini mana shu birgina baytga almashtirgan bo'lur erdim», deydi.

Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining yorqin yulduzi bo'lib, uning ilmi bevosita daholik qudratiga moliqdir. Navoiy inson komilligining qudratini,

ibtidosini poklikda, ma'naviy yetuklikda deya e'tirof etdi. Ko‘ngil ko‘zi ila, butun vujudi ila imon ulashdi. U kishi adabiyot sahnida maydonga chiqib, besh durdona-5ta dostonini birlashtirgan mashhur jahon «Xamsa» asarini yaratdi. Chin insoniy muhabbat, sadoqat, vafo qalamining bezagi bo‘ldi. Navoiyning go‘zal baytlari insoniyatning ko‘ngil chehrasini komillik, yetuklik jilolari ila bezaydi. Bu ulug‘ zotning yog'dusi go‘zal ash'orlar ila yo‘l ko‘rsatdi; turkiy tilning nufuzini tikladi va buning zamirida «Muhokamatul lug‘atayn» asari dunyoga keldi. Ikki tilda, ya'ni turkiy va forsiyda teng qalam tebratib, mahorat ko‘rsatgan shoirga «zullisonayn»unvoni berildi.

...Dunyoda ko‘p narsa: yillar, yo‘llar, orzular unutilar, hattoki muhabbat dardi... ammo unutilmas yaxshilar oldidagi qarz. Darvoqe, toj-u-taxt shon-u-shavkat, shuhrat, hatto dunyoning o‘zi ham o‘tkinchi. Ne bir bahodirlar, ne bir sultonlar o‘tmadilar, yarim dunyoni ilkida titratib, olamga ustun bo‘laman, deya na'ra tortmadilar. Iskandardek shoh-u sulton ham o‘limi yaqinlashganda qo‘llarini tobutdan chiqarib,xaloyiq oldidan olib o‘tishini vasiyat qiladi. Demoqchi bo‘ldiki, odamzot ko‘rsinki, dunyo to‘plab, boylik yig‘ib bu foniy dunyodan boqiy dunyo sari rixlat qilar chog‘da qo‘llarim bo‘sh ketmoqda. Insondan faqat yaxshilik qoladi. Seni faqat yaxshi ishlaring, yaxshi noming uchungina yodga oladilar...

Pir siymosidagi bu ulug‘ zot hayotini Olloh ishqiga, Olloh vasfiga baxshida etdi. Uning jamolini dunyoning hislaridan ustun deb bildi. Navoiy komil inson, muruvvat, ezgulikni nainki go‘zal bitiklarida, ashorlarida, balki, ziddiyatlar avj olgan, hayotning qora qozonida razolat, qabohat, oshlari qaynayotgan ayni davrda unga amal qila oldi, muhtasham binolarning qad ko‘tarishida, bog‘-rog‘larning yashnashida, ko‘priklarning qurilishi-yu, obodonchiliklarning boshida ham Navoiyning beminnat xizmatlari bor.

Bu ulug‘ zotning go‘zal baytlari insoniyatning ko‘ngil xazinasini komillik, yetuklik jilolari ila bezaydi. Shoir aytganidek:« Dunyoga ustun bo‘lib, yer yuzini larzaga solish, qanchalik dami o‘tkir bo‘lsa-da, aslo qilichning ishi emas, barmoqlar tigrasida aylanib, oq qog‘oz ustunigina bezashga qodir qalamning ishi, faqat ugina butun zaminni zabt eta olish qudratiga ega. Ammoki bu qalam-qog‘oz chehrasini ajib jilolar ila bezatsagina».

Mana, o‘tmishga, olis moziyga aylangan o‘sha kunlarga ham 585 yil to‘ldi.

O‘zbek mumtoz adabiyotining peshtoqida so‘nmas yulduz bo‘lib porlab turgan ulug‘ Navoiyning siymosida, besh asrdan ortiq vaqt o‘tibdiki, u yaratgan bog‘ zavol bilmay yashnab turibdi.

Donishmandning nodir asarlari tandir hovuri ufurib turgan non kabi aziz, qadrli.

Bu ulug‘ zot zulmat ichra yo‘l izlab, yorug‘lik istagan ko‘ngillarga nur bo‘lmoq istadi, yaxshilar ko‘nglida esa ezgulik mangu bo‘lishini tarannum etdi.

Yillar asrlarni o‘z izmiga bo‘ysundirib, hayot charxpalagi mudom aylanmoqda.

Nuroniy bobomiz samimiyat ila jilmayib, bizga mamnun boqmoqda. Nigohidagi bu nur bizni iymon manzillari sari chorlaydi. Illo, Navoiy bobomizning pok ruhlari barchamizga madad bergay.

Xulosa qilib aytish joizki, Alisher Navoiy ijodini o‘rganish — bu millatning o‘zligini anglashi va yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish demakdir. Shoir asarlarini o‘rganish nafaqat bugungi kun, balki kelajak avlod yoshlari uchun ham

muhim hisoblanadi.Maqola buyuk mutafakkirning o'lmas merosini qadrlash va uni jahon miqyosida targ'ib qilish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydanilgan adabiyotlar :

1. Zafariddin Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.

2. Dilshoda, A. (2025). MUHAMMAD YUSUF IJODINING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O 'RNI. Global Science Review, 1(1), 388-392.

3. Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION.* (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).

4. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.

5. Farida, X., To'xtayeva, D., Murtazayeva, M., & Abdurahmonova, D. (2025). SAB'AI SAYYOR" DOSTONINING BOBLARI BO'YICHA TAVSIFI. *Shokh Articles Library*, *1*(2).